

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA METODLARI

Po‘latova Quvonchoy Davronbek qizi

*Urganch davlat pedagogika instituti Xalqaro hamkorlik bo‘limi
uslubchisi, “Tabiiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada geografiya darslarida kreativ kompetentlik tushunchasi, uning bugungi kunda ta’lim tizimidagi zaruriyati va interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish asoslari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ kompetentlik, kreativ qobiliyatlar, kompetensiya, kreativlik, “brainstorming” usuli, “agar...” o‘yini, “fantaziya xaritasi” kreativ yechim.

THE NECESSITY AND METHODS OF DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE COMPETENCE IN GEOGRAPHY LESSONS

Pulatova Kuvonchoy Davronbek kizi

Methodologist of the International Cooperation Department
of Urgench State Pedagogical Institute,
teacher at the “Natural Sciences” Department

Annotation. The article discusses the concept of creative competence in geography lessons, its necessity in today’s education system, and the foundations of developing students’ creative abilities through interactive methods.

Keywords: creative competence, creative abilities, competence, creativity, “brainstorming” method, “what if...” game, “fantasy map”, creative solution.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini amalga oshirish maqsadida ta’lim jarayonini jahon andozalariga mos tarzda olib borish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amaliyotga tadbiiq etilmoqda. 2015 yil Janubiy Koreyada o‘tkazilgan butun jahon forumida ta’limning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi “Ta’lim-2030” Inchxon deklaratsiyasi asosida o‘qitish metodlarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda [2]. Ko‘plab ilmiy-tadqiqot muassasalarida kasbiy tayyorgarlikning ilmiy metodik asoslari, o‘qituvchilarni pedagogik mahoratini takomillashtirish, xususan innovatsion darslar uchun ilmiy asoslangan samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan o‘qituvchining pedagogik faoliyatini

modernizatsiya qilish orqali ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarini uzviy va uzluksizligini ta'minlash hamda ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida uchinchi-Renessans talablari asosidagi amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifat ko'rsatkichlarini oshirish, kadrlar tarkibini sifat jihatdan yangilash, yuksak malakali, yetuk va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Yangi avlod darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlarini tayyorlash va chop etish asnosida yosh avlodning bilim va ko'nikmalarini, xususa, kreativ kompetentligini rivojlantirish ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreativ kompetentlik tushunchasining ta'rifi va uni rivojlantirish metodlari pedagogika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning aniq predmeti sifatida tadqiq qilinishi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limiy yondashuvlar kreativ kompetentlik murakkab jarayon ekanligini, uning mohiyatini tushunish lozimligini anglatadi. Tahlil etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida kreativ kompetentlikni kompleks tahlil qilish, falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai-nazardan ko'p qirrali xususiyatlarini o'rganish, kreativlikning ta'lim muhitiga ta'siri, uzluksiz malaka oshirish jarayonida kreativ o'qitishni rivojlantirish muammosi to'liq o'rganilmagan. Kreativlik keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, fanning faqat bitta sohasiga tegishli emas. Psixologiyada kreativlik asosan ikki jihatdan: yangi narsalarni yaratishning psixologik jarayoni va ushbu jarayonda shaxsni ishtirok etishini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar to'plami sifatida o'rganiladi va kreativlikni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar (qobiliyatlar, motivlar, bilimlar, ko'nikmalar) mavjudligiga e'tibor qaratiladi. Pedagogik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: A.V.Brushlinskiy tafakkur va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo'lmaganda minimal) kreativ, samarali, mustaqil bo'lishini izohlaydi. J.Gildfordning nazariy yondashuvlarida kreativlik- muammolarni aniqlash va qo'yish, ko'p sonli g'oyalarni yaratish, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, muammolarni analiz va sintez qilish qobiliyati sifatida qaralsa, E.P.Torrensning tadqiqotlarida kreativlik muammolarga, mavjud bilimlarning yetishmovchiligiga yoki mos kelmasligiga nisbatan sezgirlikning paydo bo'lish jarayoni sifatida tavsiflanadi. V.I.Andreev kreativlikni faoliyatining turi sifatida qarama-qarshilik, muammoli vazifaning mavjudligi, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi sifatida izohlaydi. A.Maslouning talqinida shaxsning kreativligi intellektual qobiliyatlar orasida alohida tur sifatida har kimga xos bo'lgan, ammo atrof-muhit ta'siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo'nalish deb izohlanadi;

A.R.Aripjanova oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosini shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqishni taklif etadi; G.I.Ibragimova kreativlik qobiliyatini muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya asosida tahlil qiladi. F.Zokirova va Sh.Pozilovalarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va alaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi pedagog-tinglovchi, tinglovchi-tinglovchi yoki tinglovchi va ma'lum bir vositalar o'rtasidagi munosabatlarga yo'naltirilgan ta'lim turi deb tushuntiriladi. [8]

Mamlakatimiz olimlaridan geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi bo'yicha U.H.Safarov "Talabalarning bilim faolligini oshirish jarayonida EHMDan foydalanish" (O'zbekiston tabiiy jug'rofiyasi kursi misolida) masalasini, A.T.Hayitov "Maktab tabiiy geografik kurslarida geoeologik bilimlar tizimi va ta'limning metodik asoslari"ni, R.T.Gayipova "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida mahalliy ko'rsatma vositalaridan foydalanishning uslubiy asoslari"ni, S.X.Matsaidova "Maktab o'quvchilarida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish"ni, H.B.Nikadambayeva "O'zbekiston tabiiy geografiya kursini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi" (oliy ta'lim misolida) muammosini, F.R.Saydamatov "Maktab geografiya ta'limida ekologik o'lkashunoslik vositasida o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish metodikasi"ni tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlar o'zining ilmiyligi, ilg'or g'oyalarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatlidir [2]. Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur olib borilgan tadqiqotlarda geografiya darslarida o'quvchilarning kreativ kompetentlik tushunchasi va uni rivojlantirish texnologiyalari ilmiy-metodik nuqtai-nazardan majmualiy tadqiq etilmagan. Geografiya fani dunyo haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va muammolarga noodatiy yondashish qobiliyatlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Shu bois geografiya darslarida kreativ kompetentligini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish o'ziga xos amaliy ahamiyatga hisoblanadi. Kreativ kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berish va uni takomillashtirish quyidagi zamonaviy ta'limiy yondashuvlaridan foydalanishni taqozo qiladi: gnoseologik yondashuv (g'oya, tasavvur, konsepsiyalarni yaratish, empirik va hissiy bilish, tafakkur va uning shakllari tushuncha, hukm, xulosalarni paydo bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish); tizimli yondashuv (dars mavzulari bir butun tizim sifatida ko'rilib, kreativ kompetentsiyani bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'zaro funktsional bog'liq holda rivojlanish); texnologik yondashuv (ta'lim jarayonini tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirish, texnologik madaniyat, texnologik muhit, texnologik etika va estetika); integrativ yondashuv (ta'lim mazmunini integratsiyalash, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan

o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy yaxlitlash, o'rganilayotgan obyektlarning xususiyatlarini tizimlashtirish) ; innovatsion yondashuv (fan dasturlaridagi yangiliklarni qabul qilish, yangilik kiritishga va qo'llashga tayyorgarlik, ijodkorlik); individual-faoliyatli yondashuv (o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar, shaxsning qiziqishlari, maqsadlari va faoliyat tizimini nazariy tahlili, o'quvchining shaxsiy axborot maydonini yaratish); kompetentsiyali yondashuv (qobiliyatlarni kompleks takomillashtirishda ijtimoiy moslashuvchanlik va ijobiy munosabat, ta'lim standartlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish); akmeologik yondashuv (ta'lim olish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, ijtimoiy tan olinish, o'z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qilish, refleksiya, ijodiy tafakkur, ta'limni ichki ehtiyojga aylanishi); akseologik yondashuv (qadriyatlar tizimini jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ijtimoiy funktsiyalarini, aksiologik ong, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, qadriyatlarni o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligini, ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish) dialogik yondashuv (tarbiyaviy ta'sirning dialogik tamoyili, o'qituvchining avtoritar pozitsiyasi va o'quvchilarning bo'ysunuvchi pozitsiyasini rad etib, o'zaro munosabatlarning interfaol shaklini amalga oshirish, ishonch va hamkorlik muhiti asosida ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishtirish) istiqbolni ko'rish, prognoz qilish malakalarini shakllanishini tushuntiradi; xyutagogik (evtagogik) yondashuv hayot davomida doimiy ravishda o'z-o'zini o'rganishga, o'z-o'zini rivojlantirishga yangicha yondashuv bo'lib, shaxsning mustaqil ravishda, o'z maqsadlari va qiziqishlariga muvofiq nimani, qachon va qanday o'qishini aniqlashga imkon berib, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish indikatorlarini belgilashda asos bo'ladi. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar asosida geografiya darslarida samarali metodlardan foydalanib, o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga munosib hissa qo'shish mumkin. Quyida shu kabi metodlardan ayrimlari namuna sifatida yoritilgan:

“Brainstorming” metodi. Bu metodning asosiy mazmunida o'quvchilardan qisqa vaqt ichida imkon qadar ko'proq g'oya olish talab qilinadi. Bu jarayonda javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi muhokama qilinmaydi. Geografiya darslarida “Yerda suv bo'lmaganida, hayot qanday bo'lardi?”, “Cho'llarda odamlar qanday yashashlari mumkin?”, “Ishlab chiqarish jarayonida qimmatbaho xomashyolarni o'rniga qanday muqobil manbalardan foydalanish mumkin?”, “Agar sizga avtomobil (mavzuga mos ravishda boshqa sanoat tarmog'ini qo'yish mumkin) ishlab chiqarish korxonasini qurish imkoniyati berilsa, uni qayerga joylashtirasiz va nima uchun?” kabi qiziqarli savol va topshiriqlardan foydalanish ta'lim oluvchilarda noodatiy, tezkor va erkin fikrlashni rivojlantiradi.

“Fantaziya xaritasi” metodida o‘quvchilar o‘zlari o‘ylab topgan mamlakat yoki materikni chizib, unga iqlim, relyef, resurs va aholini joylashtiradilar. Topshiriqlarni esa quyidagi ko‘rinishda berish mumkin: “Tinch okeanida ekvatoridan janubda o‘z orolingizni belgilang va undan dunyoning boshqa qismlari bilan bog‘lovchi asosiy yo‘llarni ko‘rsating, geografik joylashuviga ko‘ra unga tabiiy va iqtisodiy jihatdan ta’rif bering”. Bu usul tasavvur, ijodkorlik va vizual fikrlashni rivojlantiradi.

“Rolli o‘yinlar”da o‘quvchilar turli rollarga kirib, berilgan muammoni hal qilishadi. Masalan, bir guruh “ekspeditsiya olimlari”, ikkinchisi “mahalliy aholi”, uchinchisi “tabiat muhofazachilari” sifatida chiqish qiladilar va o‘qituvchi tomonidan quyidagicha vaziyat berilishi mumkin : “Yog‘och mahsulotlariga talab oshmoqda, shu o‘rinda Amazonka o‘rmonlarini kesish mumkinmi yoki yo‘q?”. Bu metod hamkorlik, muloqot va kreativ yondashuvni rivojlantiradi.

“Kreativ yozuv va rasm” metodida o‘quvchilardan geografik obyektni tasvirlab hikoya yozishlari va rasm chizishlarini so‘rash mumkin. Masalan, balandlik mintaqalariga doir mavzu o‘tilganda keltirilgan tog‘ cho‘qqilari balandligini, yoki ko‘llar mavzusida uning qirg‘oq shaklini, maydonini esa taqribiy masshtab yordamida tasvirlashni so‘rash mumkin va “Tasvirlangan obyekt (Everest cho‘qqisi, Orol ko‘li, Grelandiya oroli va hkz.) bilan suhbatlashsangiz u sizga nimalarni hikoya qilishi mumkin?”. Shu asnoda, ta’lim oluvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlashini kengaytirish mumkin.

“Agar ...” interfaol o‘yinida “Agar dunyoda chuchuk suv zaxirasi tugab qolsa?”, “Agar butun okeanlar yuzasini neft pardasi qoplab olsa?” kabi savollar berilib, javoblar tinglanadi va har bir o‘quvchi o‘zining yechimini taklif qilishi mumkin. Bu metod yordamida o‘quvchilarni geoekologik muammolarga diqqat qaratish va ularga kreativ yechimlar berishga yo‘naltiradi.

“Qiziqarli taqqoslash” metodida bir biriga teskari bo‘lgan ikkita obyekt berilib, ular o‘rtasida qanday umumiylik bor deb savol berilishi mumkin : “Afrika va Antarktidaning o‘xshash tomoni nimada?” jarayon davomida o‘quvchilar qiziqarli va tasavvuriy tomonlarini ham qo‘shish mumkin. Natijada ularning materik va okeanlar haqidagi bilim va ko‘nikmalari mustahkamlanadi, geotizim haqida tushunchalari rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, kreativ kompetentlik muammoli vazifalarni yechishda ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik va tanqidiylik, sezgi, intuitsiya, o‘ziga xoslik, ishonch, nostandart vazifalarni hal etish, tahlil, analiz va sintez, prognoz qilish va istiqbolni ko‘rish, tasavvur, qarama-qarshilikka sezgirlik, empatiya, idrok, steriotiplarni yengish, tavakkal qilish, erkinlikka intilish kabi xususiyatlarni o‘zida birlashtiradi. Kompetentlik murakkab tushuncha bo‘lib, uning mohiyati bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lish bilan birga psixoiijtimoiy (ko‘nikma va

yo‘nalishlar bilan birgalikda) resurslardan foydalanish va ularni safarbar qilish yo‘li bilan kasbiy ehtiyojlar majmuasini qondirish jarayonini o‘zida mujassam etadi. Demak, o‘quvchining kreativ kompetentligi ta‘lim olish jarayonining turli bosqichlarida erishgan ijodiy yutuqlarini aks ettirib, yuqori natijalarga erishish jarayoni sifatida talqin etiladi. Geografiya darslarida kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodlaridan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ijodkor, tashabbuskor va yangicha fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois har bir o‘qituvchi dars jarayonida interfaol va zamonaviy metodlardan keng foydalanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2010-yil. 278 b.

2. Amonov X.N. bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. 13.00.02-ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya) Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertasiyasi, T-2023

3. Amonov X.N. Globallashuv sharoitida geografiya ta‘limiga qo‘yiladigan talablar. Zamonaviy ta‘lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnal №5. T., 2013. –57-59 p.

3. G‘ulomov P., Abdullaev R., Qurbonniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi. 5-sinf O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent.: “Yangiyo‘l poligraf servis”. 2015 y. 213 b.

4. Geografiya va geografiya ta‘limidagi muammolar. Respublika miqyosidagi ilmiy - amaliy konferentsiyasi. Toshkent, 30 may 2018 yil. -480 b.

5. Geografiya fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlari (ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi loyiha) Toshkent 2021y. 216 b.

6. Musaev P., Musaev J.. Geografiya. 8-sinf darslik. Toshkent.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2019. –176 b.

7. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta‘lim paradigmasi sifatida. -T.: “Zamonaviy ta‘lim / Sovremennoe obrazovanie ”, 2016.–3-10 s.

8. Tulishov G‘.R. Pedagogikada bo‘lg‘uvsi o‘qituvchilarni kreativ kompetentlik mohiyati. “Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali, ISSN 3030-3451

Internet saytlari:

<https://ru.wikipedia.org>

<https://www.google.com/>

www.dissercat.com

www.edu.uz

www.pedagog.uz